

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 27- maydagi
116- sonli buyrug'iga
ILOVA

Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha mazkur uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT – 2008) konsepsiyalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan yalpi ichki mahsulotni (keyingi o'rinlarda – YAIM) iqtisodiy faoliyat turlari kesimida hisoblashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom, tarmoq klassifikatsiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichidan (keyingi o'rinlarda – IFUT-2) foydalangan holda, YAIMni yillik (batafsil hisob-kitoblar) va choraklik (tezkor baholashlar) davriylikda hisoblashni ko'zda tutadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistika ko'rsatkichlari tizimini o'zida aks ettiradi;

institutsional birlik o'z nomidan aktivlarga ega bo'la oladigan, majburiyatlar oladigan, iqtisodiy faoliyatni va boshqa birliklar bilan operatsiyalarni amalga oshira oladigan xo'jalik yurituvchi subyektdir;

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar);

mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun subsidiyalarni chegirib tashlagan holda, tovar va xizmatlarni sotish narxlariga kiritiluvchi mahsulotlar uchun soliqlar;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun to'laydigan barcha soliqlardan iborat (mahsulotlar uchun soliqlar bundan mustasno). Ular yer va tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan ishchi kuchi, ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnomalar va hokazolar uchun to'lanadi;

asosiy kapital iste'moli hisobot davrida moddiy va ma'naviy eskirish hamda tasodifiy zararlanish natijasida asosiy kapital qiymatining kamayishini ifodalaydi;

norasmiy iqtisodiyot – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan (tovarlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat;

iqtisodiy ahamiyatga ega narxlar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplovchi va yetarlicha foydani ta'minlovchi bozor narxlaridir. Bu narxlar, ishlab chiqaruvchilar yetkazib bermoqchi bo'lgan va iste'molchilar sotib olmoqchi bo'lgan mahsulotlar miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

sotib olish narxi – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtda va belgilangan joyga yetkazib berilgan tovar yoki xizmat birligi uchun to'lanadigan narx. U tovarni yetkazib berish bo'yicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek, sotib oluvchi tomonidan to'lanadigan mahsulotlar uchun soliqlarni o'z ichiga oladi, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va chegirib tashlanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olmaydi;

asosiy narx – ishlab chiqaruvchi tomonidan xaridordan tovar yoki xizmatning birligi uchun olinishi lozim bo'lgan, mahsulot ishlab chiqarilishi yoki sotilishi natijasida to'lanishi lozim bo'lgan har qanday soliqni ayirib, olinadigan har qanday subsidiyalarning qo'shilganiga teng bo'lgan narx. U ishlab chiqaruvchi

tomonidan hisobvaraƒ-fakturalarda alohida ko'rsatiladigan har qanday transport xarajatlarini o'z ichiga olmaydi;

YAIM fizik hajm indeksi (FHI) doimiy narxlardagi, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIMni (real YAIM) joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMga nisbati orqali hisoblanadi;

YAIM deflyator indeksi iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAIMning (joriy narxlardagi hisobot davri YAIM) real YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

2. YAIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTdagi ishlab chiqarish hisobini tuzish tamoyillariga asoslangan bo'lib, YAIMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlar uchun sof soliqlar yig'indisi sifatida baholashni ko'zda tutadi. Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAIM ustuvor ahamiyatiga ko'ra asosiy hisoblanadi, bu holat boshlang'ich ma'lumotlarning nisbatan yuqori ishonchlilik darajasi, shuningdek, mazkur usulning iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar hamda alohida tarmoqlar va hududlarning rivojlanish tendensiyalarini kuzatish imkonini berishi bilan bog'liqdir.

3. YAIM joriy narxlarda, shuningdek fizik hajm indeksi va deflyator indeksini hisoblash maqsadida doimiy narxlarda baholanadi. Iqtisodiyotdagi faol tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida, taqqoslash uchun baza yili sifatida o'tgan yilning mos davridan foydalaniladi.

4. YAIM Statistika dasturida ko'zda tutilgan muddatlarda, yillik va choraklik davriylikda shakllantiriladi.

5. YAIMni yillik baholash asosiy hisoblanadi. Yillik baholashda turli iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish, yakuniy talabni qondirish uchun tovarlar va xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari, shuningdek, daromadlarni shakllanish jarayonlarining yuqori darajadagi muvofiqlashuviga erishiladi. Bunda, YAIMni yillik baholash IFUT-2 seksiyalari darajasida shakllantiriladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillik YAIM tarkibi sxemasi 1-ilovada keltirilgan.

6. YAIMni choraklik baholash joriy iqtisodiy dinamikani tavsiflash maqsadida ishlab chiqiladi va yillik baholashlar davomida batafsilroq ma'lumotlar asosida aniqlashtiriladigan yil davomidagi ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda, YAIMni choraklik baholash yillik baholashdan farqli ravishda, yuqori darajada jamlash asosida shakllantiriladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha choraklik YAIM tarkibi sxemasi 2-ilovada keltirilgan.

2-bob. Ishlab chiqarish, oraliq iste'mol va yalpi qo'shilgan qiymatni shakllantirish

7. Ishlab chiqarish bozor narxlarida sotiladigan tovarlar va xizmatlar, o'z iste'moli (yakuniy iste'mol va yalpi jamg'arish) uchun ishlab chiqarilgan tovarlar, davlat budjeti, maqsadli va budjetdan tashqari maxsus davlat jamg'armalari hamda uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan jamoaviy va yakka tartibdagi xizmatlarni ishlab chiqarishga sarflangan joriy xarajatlarning umumiy qiymati bilan o'lchanadi.

8. Ishlab chiqarish ishlab chiqarish jarayonida tovarlar va xizmatlar yaratilgan vaqtda qayd etiladi va baholanadi. Baholash usullaridagi farqlarni inobatga olib, jami ishlab chiqarish quyidagi turlarga ajratiladi: bozor uchun ishlab chiqarish, nobozor ishlab chiqarish va o'zining yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarish.

9. Bozor uchun ishlab chiqarish asosiy narxlarda baholanadi va quyidagilarning qiymatini o'z ichiga oladi:

iqtisodiy ahamiyatga ega narxlarda sotiladigan tovarlar va xizmatlar;

boshqa tovarlar, xizmatlar yoki aktivlarga barter usulida ayirboshlanadigan tovarlar va xizmatlar;

ish beruvchilar tomonidan o'z xodimlariga natura shaklida mehnatga haq to'lash sifatida beriladigan tovarlar va xizmatlar;

korxonaning biror bo'linmasi tomonidan ishlab chiqarilgan va ushbu korxonaning boshqa bo'linmasiga joriy davrda yoki kelgusida ishlab chiqarishda foydalanish uchun jo'natilgan tovarlar yoki xizmatlar (masalan, qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan urug' va yem-xashak; konlarda ko'mir briketlarini ishlab chiqarishda ishlatilgan ko'mir; xo'jalik usulida qurilish uchun ishlatilgan materiallar; yordamchi xo'jaliklar tomonidan korxonaga tegishli bo'lgan oshxonalarga, bolalar muassasalariga, dam olish uylariga berilgan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar);

ishlab chiqaruvchining moddiy aylanma vositalari zaxiralariga kelib tushuvchi va yuqorida aytib o'tilgan bozorga oid maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish.

10. Nobozor ishlab chiqarish aksariyat qismi bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan narxlarda taqdim etiladigan tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Nobozor ishlab chiqarish ishlab chiqarishga ketgan joriy xarajatlar bo'yicha baholanadi hamda davlat budjet muassasalari va notijorat tashkilotlar tomonidan uy xo'jaliklariga taqdim etiladigan individual xarakterga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar (bepul ta'lim va tibbiy xizmat) yoki ishlab chiqarilishi davlat tomonidan tashkil etiladigan va davlat budjetidan moliyalashtiriladigan, jamiyatga umumiy tarzda bepul taqdim etiladigan jamoaviy xizmatlar (davlat boshqaruvi organlari, mudofaa xizmatlari va boshqalar) qiymatini o'z ichiga oladi.

11. O'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarish quyidagilarning qiymatini o'z ichiga oladi:

uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlar;

o'z uyida yashash bo'yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi);

haq to'lanadigan uy xizmatchilari xizmatlari;

korxonaning o'zida kelgusida ishlab chiqarishda foydalanish uchun qoladigan, o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan asosiy fondlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi).

12. Oraliq iste'molga tovarlar xarajatlari va xizmatlar xarajatlari kiradi.

Tovarlar xarajatlariga quyidagilar kiradi:

yakuniy mahsulotda mujassamlashgan xomashyo va materiallar;

odatdagi texnologiyaga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan materiallar (masalan, sinovdan o'tkazish va sifatni nazorat qilishda ishlatilgan materiallar; asbob-uskunalar, binolar va boshqa asosiy fondlarni joriy saqlab turish, ishlatish va ta'mirlash uchun zarur bo'ladigan materiallar; asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun butlovchi qismlar; asosiy fondlar tarkibiga kiritilmaydigan uskunalar, o'lchash asboblari, moslamalar, laboratoriya asbob-uskunalari; ish kiyimlari va poyabzallari, xodimlarning maxsus oziq-ovqatlari va arzon narxli buyumlar);

korxonada yig'ilayotgan yarim fabrikatlar va detallar;

barcha turdagi energiyani ishlab chiqarishga, isitishga, o'z ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatadigan transport ishlariga sarflangan barcha turdagi yoqilg'i;

korxonaning texnologik va boshqa ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi energiya; korxonaning o'zi ishlab chiqaradigan elektr energiyasi va boshqa turdagi energiyalar hamda sotib olingan energiyani o'zgartirish va uni iste'mol qilish joyiga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar;

qadoqlash materiallarining sof qiymati (ya'ni, qadoqlash materiallarini sotib olish qiymatidan ularni ishlatishdan olingan mablag'larni chegirgan holda);

moddiy resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq yo'qotishlar;

xodimlarning kerakli asboblari, ish kiyimlariga sarflagan xarajatlarini qoplab berish;

mehmonxonalar, restoranlar va kafelar tomonidan oziq-ovqat, tamaki mahsulotlari va ichimliklarni sotib olinishi;

korxonaning ma'lum bir bo'linmasi tomonidan boshqa bo'linmasiga ishlab chiqarishda foydalanish uchun yetkazib berilgan tovarlar (masalan, qishloq xo'jaligi korxonasining ma'lum bir bo'linmasi ishlab chiqargan va boshqa bo'linmasiga iste'mol qilish uchun yetkazib berilgan urug'lar va yem-xashaklar).

Xizmatlar xarajatlariga quyidagilar kiradi:

boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega ishlar va xizmatlar (xomashyoni qayta ishlash, ta'mirlash va transport ishlari, xomashyo sifatini tekshirish ishlarini o'tkazish va boshqalar);

aloqa xizmatlariga to'lovlar;

o'quv muassasalariga xodimlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq to'lovlar;

sog'liqni saqlash muassasalariga dispanserizatsiya, vaksinatsiya va boshqa shu kabi xizmatlar uchun to'lovlar;

binolar, inshootlar, mashina va uskunalar uchun ijara to'lovlari;

chiqindilarni yig'ishtirish va utilizatsiya qilish kabi kommunal xizmatlarga to'lovlar;

yuridik xizmatlar uchun to'lovlar;

reklama hamda nusxa ko'chirish, chiptalarni buyurtma qilish kabi boshqa tadbirkorlik xizmatlari va professional birlashmalar xizmatlari uchun to'lovlar;

tovarlarni litsenziyalash va sertifikatlash to'lovlari;

yong'in xavfsizligi va qo'riqlash xizmatiga to'lovlar;
 abonentlik xizmati uchun to'lovlar;
 davriy nashrlarga obuna bo'lish bilan bog'liq to'lovlar;
 mutaxassislarni xizmat safariga yuborish bilan bog'liq transport va mehmonxona xizmatlari, shuningdek, yo'l puli xarajatlari;
 moliyaviy xizmatlar uchun to'lovlar.

13. Oraliq iste'molga, moliyaviy xizmatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar bilan birga bilvosita hisoblanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ham kiritiladi.

14. Oraliq iste'mol, tovarlar ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan vaqtda amalda bo'lgan sotib olish narxlarida baholanadi. Shu sababdan, buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra aniqlangan oraliq iste'molga tuzatishlar kiritiladi. Tuzatishlar, ishlab chiqarish zaxiralarini saqlash davridagi narxlarni o'rtacha o'zgarishini hisobga olgan holda, oraliq iste'molni qayta baholashdan iborat bo'ladi.

15. Oraliq iste'mol tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

tabiiy xomashyolardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar (mineral xomashyo bazasini takror hosil qilishga, yerni rekultivatsiya qilishga ajratmalar, o'sib turgan joyida sotiladigan daraxtlar uchun, suv xo'jaligi tizimlaridan olinadigan suv uchun to'lovlar), chunki ular budjetga to'lanadigan to'lovlarni ifodalaydi.

korxona tomonidan o'z xodimlariga natura ko'rinishidagi ish haqi sifatida bepul yoki pasaytirilgan narxlarda beriladigan tovarlar va xizmatlar, natura ko'rinishidagi ijtimoiy nafaqalar, korxona bo'linmalari tomonidan xodimlarga va ularning oila a'zolariga ko'rsatiladigan ijtimoiy-madaniy xizmatlar (idora (korxona) tasarrufidagi turar joylar, kasalxonalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, klublar va boshqalar) qiymati;

asosiy fondlarni kapital ta'mirlash xarajatlari;

asosiy kapital iste'moli;

asosiy fondlar va noishlab chiqarish aktivlariga egalik huquqlarini berish bilan bog'liq xarajatlar (ular asosiy kapitalning yalpi jamg'armasiga kiritiladi);

yerdan foydalanganlik uchun ijara to'lovi (mulkdan olinadigan daromadlarga kiritiladi);

neft, tabiiy gaz va boshqa foydali qazilma konlarini izlash bilan bog'liq geologik qidiruv, burg'ulash ishlari va boshqalarga xarajatlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'armasiga kiritiladi);

melioratsiya va yerlarni tozalash ishlari, o'rmonlar va bog'lar barpo etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi yerlarni yaxshilash ishlariga kapital xarajatlar (asosiy kapitalning yalpi jamg'armasiga kiritiladi);

ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar (mazkur faoliyat egasiga iqtisodiy foyda keltirmasligi aniq bo'lgan holatlar bundan mustasno);

davlat tomonidan zaxirani to'ldirish uchun tovarlar sotib olinishi.

16. Asosiy narxlarda iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo'shilgan qiymati asosiy narxlardagi ishlab chiqarish va sotib olish narxlaridagi oraliq iste'mol o'rtasidagi farq orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$GVA_i = O_i - IC_i, \quad (1)$$

bu yerda,

GVA_i – i iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;

O_i – i iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlarda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi;

IC_i – i iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sotib olish narxlarida oraliq iste'mol hajmi.

3-bob. YAIMni baholash uchun axborotlar manbai

17. Ishlab chiqarishni baholash uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan keng ko'lamdagi axborot resurslari (iqtisodiy faoliyat turlarining qisqa muddatli kuzatuvlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo'jaliklari kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to'g'risida, bojxona va soliq organlarining ma'muriy ma'lumotlari, budjetdan tashqari jamg'armalarning, Markaziy bankning moliyaviy ko'rsatkichlari va boshqalar) xizmat qiladi.

18. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oraliq iste'molni yillik davriylikda hisoblash, korxona va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari va ekspert baholashlar asosida amalga oshiriladi.

19. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oraliq iste'molni choraklik davriylikda hisoblash, aniqlik kiritilgan yillik hisob-kitoblar asosida, oraliq iste'molning ishlab chiqarishdagi ulushidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

20. YAIMni tezkor choraklik baholashda qator ko'rsatkichlar bo'yicha bevosita ma'lumotlarning mavjud emasligi sababli, YAIMni hisoblash bilvosita ko'rsatkichlar va ekspert baholashlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

4-bob. YAIMni doimiy narxlarda baholash

21. YAIMni doimiy narxlarda hisoblash, ma'lum bir davr mobaynidagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Doimiy narxlardagi YAIM turli usullar va ma'lumotlar manbalaridan foydalanib, doimiy narxlarda alohida hisoblangan iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo'shilgan qiymatlari va mahsulotlar uchun sof soliqlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

22. YAIMning tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

a) joriy narxlardagi hisobot davri ma'lumotlarini mos narxlar indeksi bo'yicha deflyatsiya qilish orqali.

$$O_{const.} = \frac{O_t}{I_p} \times 100, \quad (2)$$

bu yerda,

$O_{const.}$ – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_t – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha t davr uchun joriy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

I_p – iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi p narx indeksi.

Ushbu usulda quyidagi narx indekslaridan foydalaniladi:

- iste'mol narxlari indeksi;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari indeksi;
- tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksi;
- dehqon bozorlaridagi narxlar indeksi;
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi;
- o'rtacha ish haqining o'zgarishi indeksi va boshqalar.

b) joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri ma'lumotlarini fizik hajm indeksleri yoki ushbu iqtisodiy faoliyat turining rivojlanish sur'atlarini mantiqan to'g'ri ifodalovchi natural indikatorlar yordamida ekstrapolyatsiya qilish orqali:

$$O_{comp} = \frac{O_{t-1} \times I_q}{100}, \quad (3)$$

bu yerda,

$O_{const.}$ – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_{t-1} – iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha $t-1$ davr uchun (o'tgan yilning) joriy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

I_q – iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi q fizik hajm indeksi.

Ushbu usulda quyidagi indekslardan foydalaniladi:

- natura shaklidagi tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha fizik hajm indeksleri;
- xizmatlar hajmi o'zgarishini ifodalovchi mos natural ko'rsatkichlarning fizik hajm indeksleri;
- yollanma ishchilar sonining o'zgarish indeksi va boshqalar.

23. Ayrim hollarda ko'rsatkichlarni doimiy narxlarda hisoblashning to'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usuli ham qo'llaniladi, bu usul hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o'tgan yilning mos davri narxlariga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi. Bu usul asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash uchun ishlatiladi, chunki unda cheklangan sonli bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

24. YAIM tarkibiy qismlarini hisoblashda asosan deflyatsiya usulidan foydalaniladi, mos narxlar indeksi mavjud bo'lmagan hollarda ekstrapolyatsiya qilish usuli qo'llaniladi.

25. YAIMning tarkibiy qismlari jamlangan qiymatlar bo'lganligi sababli, ularni baholash usullari yuqorida aytib o'tilgan usullar kombinatsiyasidan iborat bo'ladi.

5-bob. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarishni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (A seksiya)

26. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligiga bog'liq yordamchi xizmatlarni ko'rsatish qiymati, shuningdek, ovchilik, yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish faoliyati turlari mahsulotlari va shu sohadagi xizmatlar ko'rsatish qiymatlari yig'indisidan iborat.

27. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish qiymatiga joriy yil hosilidan olingan barcha tayyor mahsulotlar (don, texnik ekinlar, kartoshka, sabzavotlar va poliz ekinlari, mevalar va rezavorlar, ozuqabop ekinlar), urug'lar, ko'chatlar qiymati va hisobot davrida tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatining o'zgarishi kiritiladi.

28. Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari qiymati, qishloq xo'jaligi hayvonlarini yetishtirish natijasida olingan mahsulotlar (sut, tuxum, jun va b.), sotilgan chorva va parrandalar, chorva bosh soni o'zgarishi hamda asalarichilik va ipakchilik mahsulotlari qiymatini o'z ichiga oladi.

29. Yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatini joriy narxlarda hisoblash har bir xo'jaliklar turi bo'yicha hisobot davrida yetishtirilgan barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'rtacha sotish narxida to'g'ridan-to'g'ri baholash orqali amalga oshiriladi.

30. Dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatining o'zgarishi kelgusi davr hosili uchun xarajatlar qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi.

31. Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish qiymati qishloq xo'jaligi sohasida xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni statistika kuzatuv natijalariga ko'ra, shuningdek, davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida nobozor xizmatlar ko'rsatishni baholash orqali aniqlanadi.

32. Ovchilik, o'rmonchilik va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari qiymatini hisoblash tegishli xo'jaliklarning mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlari aks etadigan statistika kuzatuvlari shakllari bo'yicha ishlanmalarga muvofiq amalga oshiriladi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari qiymatiga, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan nobozor xizmatlari hajmi ham kiritiladi.

Sanoat (B, C, D, E seksiyalar)

33. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha shakllantiriladi: tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (V seksiya); ishlab chiqaradigan sanoat (C seksiya); elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (D seksiya); suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (E seksiya).

34. Ushbu seksiyalar bo'yicha ishlab chiqarishga quyidagilarning sanoat faoliyati kiradi:

tijorat korxonalari va tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari);

kichik korxonalar va mikrofirmalar;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va notijorat tashkilotlarning sanoat bo'linmalari;

uy xo'jaliklarining sotish uchun va o'z iste'moli uchun ishlab chiqarish faoliyati.

35. Sanoat ishlab chiqarishi qiymatiga quyidagilar kiradi: hisobot davrida ham o'z xomashyo va materiallaridan, ham buyurtmachi xomashyo va materiallaridan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar (qayta ishlashga berilgan xomashyo); hisobot davrida boshqa tashkilotlarga, o'ziga tegishli kapital qurilish va nosanoat bo'linmalarga berilgan, o'zi ishlab chiqargan yarim fabrikatlar; tugallanmagan ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar; boshqa tashkilotlarning buyurtmalari bo'yicha, o'zining kapital qurilishi va nosanoat bo'linmalari uchun bajarilgan sanoatga oid ishlar (xizmatlar), shuningdek, o'z asbob-uskunalarini modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish ishlari.

36. Sanoat ishlab chiqarishini hisoblashda, buyurtmachi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgan mahsulot qayta ishlashga berilgan xomashyo qiymatini o'z ichiga olgan holda ushbu mahsulotning to'liq qiymatini ifodalaydi. Qo'shilgan qiymatni hisoblashda takror hisobga olishga yo'l qo'ymaslik maqsadida, qayta ishlashga berilgan xomashyo qiymati oraliq iste'molga qo'shiladi.

Qurilish (F seksiya)

37. Qurilish uzoq muddat davom etuvchi ishlab chiqarish faoliyati ekanligi sababli, mazkur seksiya bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilishi qurilish ishlarining yakunlanishiga qarab emas, balki ularning bajarilishidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi. Qurilish ishlab chiqarishi hajmiga qurilish-montaj ishlaridagi kabi qurilish materiallariga qilingan xarajatlar kiritiladi, ammo asbob-uskunalar qiymati kiritilmaydi.

38. Qurilish bo'yicha ishlab chiqarish bino va inshootlarni pudrat yoki xo'jalik usulida qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari qiymatini, shuningdek, pudrat tashkilotlarini jalb qilmagan holda turar joy va noturar joy obyektlarini qurish, yakka tartibdagi turar joylarni kapital ta'mirlash bo'yicha yakka tartibdagi quruvchilarning amalga oshirgan ishlari qiymatini o'zida aks ettiradi. Qurilish ishlab chiqarishi qiymatini hisoblashda, yordamchi pudratchi tomonidan bosh pudratchi uchun bajarilgan ishlar qiymati qurilish bo'yicha ishlab chiqarishga alohida band sifatida kiritilmaydi, lekin bu ishlar bosh pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar umumiy qiymatining bir qismi hisoblanadi.

Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash (G seksiya)

39. Asosiy narxlarda chakana va ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar, ularning qismlari, qurilmalari va jihozlari savdosini qo'shgan holda) ishlab

chiqarishi qayta sotish uchun sotib olingan tovarlardan tushgan savdo ustama narxlari (sotishdan tushgan ustamalar) hajmi bilan o'lanadi. Savdo ustamasi sotilgan tovarlarning sotish va sotib olish narxlari orasidagi farqdan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va mahsulotlar uchun boshqa soliqlarni ayirib, mahsulotlar uchun subsidiyalarni qo'shgan holda aniqlanadi.

40. Savdo ustamasi savdo tashkilotlarining aylanma xarajatlarni qoplash va foydani shakllantirishga ishlatiladigan yalpi daromadini o'zida ifodalaydi.

41. Motorli transport vositalari va motosikllarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari qiymati xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushum miqdorida belgilanadi.

Tashish va saqlash (H seksiya)

42. "Tashish va saqlash" iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarish, barcha turdagi transportlarda yuk tashish (yuk transporti) va yo'lovchi tashish (yo'lovchi transporti), shuningdek, omborlarga joylash va saqlash xizmatlari, tashishdagi yordamchi xizmatlar, pochta va kurerlik xizmatlaridan olinadigan daromadlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

43. Ishlab chiqarishni hisoblash barcha turdagi korxona va tashkilotlar, shuningdek, tijorat maqsadida avtotashishlar bilan shug'ullanuvchi xususiy avtotransport vositalari egalari – jismoniy shaxslar tomonidan tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatishdan amalda olingan daromadlar to'g'risidagi statistika ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (I seksiya)

44. Yashash bo'yicha bozor xizmatlarini ishlab chiqarish ushbu xizmatlarni ko'rsatishdan tushgan tushum qiymati sifatida aniqlanadi. Boshqa faoliyat turlariga taalluqli bo'lgan korxonalar bo'linmalarining nobozor xizmatlar ishlab chiqarishi korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yashash xizmatlariga sarflagan xarajatlari miqdorida belgilanadi.

45. Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning ishlab chiqarishi ularning tovar aylanmasidan (ya'ni, sotishdan tushgan ustamadan tashqari, taom tayyorlashda ishlatilgan mahsulotlarning qiymati qo'shiladi) QQSni ayirib tashlanganiga teng bo'ladi.

Axborot va aloqa (J seksiya); Boshqarish va yordamchi xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat (N seksiya); Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish (S seksiya)

46. Ushbu faoliyat turlarining ishlab chiqarishi bozor va nobozor xizmatlar bo'yicha alohida baholanadi.

47. Bozor xizmatlarining ishlab chiqarish qiymati yuqorida ko'rsatib o'tilgan xizmatlar uchun tushgan tushumlar yig'indisi sifatida belgilanadi. Budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning nobozor xizmatlar ishlab chiqarishi davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida joriy xarajatlar bo'yicha

aniqlanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning xizmatlar ishlab chiqarishi ularning asosiy faoliyati bilan bog'liq joriy xarajatlari bo'yicha baholanadi.

48. Nobozor xizmatlar ishlab chiqarishni joriy xarajatlar bo'yicha baholanganda asosiy kapital iste'moli qo'shiladi.

Moliya va sug'urta faoliyati (K seksiya)

49. Ushbu seksiyaning ishlab chiqarishi moliyaviy xizmatlar, sug'urtalash, qayta sug'urtalash va pensiya jamg'armalari faoliyatini, shuningdek, moliyaviy xizmatlar hamkorligidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur seksiya, xolding kompaniyalari va trestlar, fondlar va boshqa shu kabi moliyaviy tashkilotlar faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

50. Sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqarish Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari bo'yicha alohida aniqlanadi.

51. Markaziy bank ishlab chiqarishi bozor va nobozor ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi. Nobozor ishlab chiqarish joriy xarajatlar yig'indisi bo'yicha (asosiy kapital iste'molini qo'shgan holda) baholanadi. Bozor ishlab chiqarishi Markaziy bankning bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) to'lovlar evaziga ko'rsatiladigan xizmatlari qiymati bo'yicha baholanadi.

52. Tijorat banklari va boshqa moliyaviy vositachilarning xizmatlari qiymatiga quyidagi xizmatlar turlari kiritiladi:

bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) to'lovlar evaziga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar;

foiz to'lovlari vositasida to'lanadigan moliyaviy xizmatlar;

moliya bozorlarida moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni sotib olinishi va chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy xizmatlar.

53. Bevosita to'lovlar evaziga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar qiymati to'g'ridan-to'g'ri yig'imlar va komission to'lovlar miqdorida belgilanadi.

54. Moliyaviy vositachilik xizmatlariga shuningdek, banklar va moliyaviy vositachilar sifatida ish ko'radigan boshqa moliyaviy muassasalar tomonidan ayrim birliklarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamg'arishi hamda ularni foydalanish uchun boshqa birliklarga berishi ham kiradi. Banklar tomonidan pul mablag'larini berganlik uchun undiriladigan foizlar ular tomonidan jalb qilingan mablag'lar uchun foizlar to'lovini, shuningdek, ularning joriy xarajatlarini qoplashni va foyda olishni ta'minlashi lozim. Ushbu xizmatlar qiymati olinadigan (kreditlar bo'yicha) va to'lanadigan (depozitlar bo'yicha) amaldagi foiz stavkalari bilan referent (bazis) stavka o'rtasidagi tafovut asosida bilvosita yo'l bilan aniqlanadi.

55. Sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari ishlab chiqarishi sug'urta tashkilotlari va nodavlat pensiya jamg'armalari xizmatlarini o'z ichiga oladi. Moliyaviy muassasalar sektoriga kiritiladigan va faqat sug'urta kompaniyalari hamda nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatini qamrab oladigan sug'urta faoliyatini davlat boshqaruvi sektorining bir qismi bo'lgan davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armalari faoliyatidan farqlash lozim.

56. Moliya bozorlarida moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni sotib olinishi va chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy xizmatlar ishlab chiqarishi amalga oshirilgan bitimlardan olingan marja miqdorida belgilanadi.

57. Sug'urta xizmatlari ishlab chiqarishi quyidagicha hisoblanadi:

hayot sug'urtasi bo'yicha ishlab chiqarish sug'urta mukofotlari (haqiqatda ishlab topilgan) va qo'shimcha mukofotlarni (sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan daromad) o'z ichiga oladi va bundan sug'urta tovonlari (to'lash muddati kelganlari) hamda aktuar zaxiralar o'sishi (foydada ishtirok etish bilan sug'urtalash bo'yicha zaxiralarni qo'shgan holda) chegirib tashlanadi;

sug'urtaning boshqa turlarini ishlab chiqarishi (hayotni sug'urtalash va ijtimoiy sug'urtadan tashqari) sug'urta mukofotlarini (haqiqatda ishlab topilgan) va qo'shimcha mukofotlarni (sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan daromad) o'z ichiga oladi va bundan tuzatishlar kiritilgan sug'urta tovonlari (to'lash muddati kelganlari) chegirib tashlanadi.

58. Umumiy yondashuvga muvofiq, sug'urta xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblashda qayta sug'urtalash sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari tarkibiga kiritiladi.

Rezident sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urtalash xizmatlari ishlab chiqarishi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalashdagi kabi usulda hisoblanadi, bu xizmatlarning qiymati esa sug'urta kompaniyasining oraliq iste'molida aks ettiriladi. Norezident kompaniyalar orqali amalga oshirilgan qayta sug'urtalash operatsiyalari sug'urta xizmatlarining importi va eksporti tarkibiga kiritiladi.

59. Nodavlat pensiya jamg'armalari ishlab chiqarishiga pensiya badallari va pensiya badallarini qo'yishdan olingan investitsion daromadlar, pensiya to'lovlari va pensiya zaxirasi o'sishini chegirib tashlagan holda kiritiladi.

Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar (L seksiya)

60. Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar bo'yicha ishlab chiqarish ixtisoslashtirilgan birliklar, shuningdek, boshqa tarmoq korxonalari tomonidan ikkilamchi faoliyat sifatida amalga oshiriladigan xizmatlar qiymati miqdorida belgilanadi.

61. Mulkni ijaraga berishdan tushgan tushumlar budget muassasasini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lgan hollarda, olingan ijara to'lovining qiymati ushbu faoliyat turining ishlab chiqarish qiymatiga kiritiladi.

62. Ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, o'z uyida yashash bo'yicha shartli hisoblangan xizmatlar qiymati ham kiritiladi. O'z uyida yashash xizmatlarini baholashda foydalanuvchilarning xarajatlari usulidan foydalaniladi. Mazkur usul uy egasi o'z uy-joyini boshqa yashovchilarga ijaraga bergan, degan farazga asoslanadi va uy egalarining oraliq iste'moli, ishlab chiqarishga boshqa soliqlar, asosiy kapital iste'moli va o'z uyida yashash xizmatlaridan olingan sof foydani hisobga olgan holda, bozor narxlaridagi ijara haqini aniqlashni nazarda tutadi.

$$IR = IC + T + CFC + OS, \quad (4)$$

bu yerda,

IR – o'z uyida yashash bo'yicha shartli xizmalar (uy-joy rentasi) hajmi;

IC – oraliq iste'mol hajmi (uy-joyni saqlash va ta'mirlash bo'yicha joriy xarajatlar);

T – ishlab chiqarishga boshqa soliqlar (mol-mulk solig'i);

CFC – asosiy kapital iste'moli hajmi (uy-joy uchun shartli hisoblangan amortizatsiya - eskirish);

OS – operatsion foyda (uy-joyni ijaraga berishdan olinadigan shartli ravishda baholangan sof foyda).

Professional, ilmiy va texnik faoliyat (M seksiya)

63. Ushbu faoliyat turi ishlab chiqarishi huquq, buxgalteriya hisobi, ilmiy tadqiqotlar, veterinariya, reklama, marketing, arxitektura, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlillar sohasida, shuningdek, boshqaruv masalalari bo'yicha korxonalar (tashkilotlar)ga maslahat xizmatlari, ularning bo'linmalarini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar qiymati miqdorida aniqlanadi.

64. Bunda, MHT tamoyillariga asosan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar korxonalar (tashkilotlar) uchun yordamchi faoliyat hisoblanmaydi, balki ikkilamchi faoliyat ishlab chiqarishi sifatida ko'rib chiqiladi.

65. Bozor uchun ishlab chiqaruvchilarning o'z kuchi bilan amalga oshirayotgan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalari qiymati ilmiy tadqiqotlar tijorat asosida shartnoma bo'yicha amalga oshirilganda to'lanishi lozim bo'lgan asosiy narxlarda baholanadi, lekin amaliy jihatdan qiyinchiliklarni hisobga olib, asosiy kapital iste'molini qo'shgan holda ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida muqobil baholashga yo'l qo'yiladi.

66. Maxsus laboratoriyalar yoki institutlar tomonidan tijorat asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarning qiymati sotishdan, shartnomalardan, vositachilik to'lovlaridan va shu kabi boshqa tushumlarning yig'indisi bo'yicha baholanadi.

67. Davlat boshqaruvi sektori birliklari, universitetlar, notijorat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va shu kabilar tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar qiymati, nobozor ishlab chiqarish hisoblanadi va asosiy kapital iste'molini qo'shgan holda ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar yig'indisi bo'yicha baholanadi. Ularning ishlab chiqarishini hisoblash uchun davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot va notijorat tashkilotlarining statistika hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot (O seksiya)

68. Davlat boshqaruvi, mudofaa va majburiy ijtimoiy ta'minot xizmatlari davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot, budjetdan tashqari jamg'armalar hisoboti ma'lumotlarini qo'llagan holda nobozor xizmatlar sifatida baholanadi. Nobozor xizmatlar hajmi joriy xarajatlar – oraliq iste'mol, yollanma ishchilarning ish haqlari (barcha ajratmalarni qo'shgan holda), ishlab chiqarishga boshqa soliqlar va asosiy kapital iste'moli yig'indisi sifatida hisoblanadi.

***Ta'lim (P seksiya); Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish (Q seksiya); San'at, ko'ngil ochish va dam olish (R seksiya)***

69. Ushbu faoliyat turlari ishlab chiqarish qiymatiga quyidagilar kiritiladi:
tijorat korxonalari va jismoniy shaxslarning bozor xizmatlari (masalan, repitetorlik, bolalar, kasallar va qariyalarni parvarishlash va b.);
davlat budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar xizmatlari;
tegishli faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat notijorat tashkilotlar xizmatlari;
boshqa tarmoqlarga tegishli bo'lgan korxonalar bo'linmalarining xizmatlari.
70. Tijorat korxonalari va jismoniy shaxslarning xizmat ko'rsatish hajmi ularning xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumlari miqdori bilan aniqlanadi.
71. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan muassasalarning xizmatlar ishlab chiqarishi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha tegishli maqsadlar uchun joriy xarajatlar miqdori bilan (stipendiyalar, pensiyalar, nafaqalar va boshqa pul o'tkazmalarini hisobga olmagan holda; asosiy kapital iste'molini qo'shgan holda) aniqlanadi.
72. Nodavlat notijorat tashkilotlarning xizmatlar ishlab chiqarishi ularning asosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq joriy xarajatlari bo'yicha (asosiy kapital iste'molini qo'shgan holda) baholanadi.
73. Boshqa tarmoqlarga tegishli bo'lgan korxonalar bo'linmalarining xizmatlar ishlab chiqarish hajmi ijtimoiy-madaniy sohaga tegishli obyektlarni saqlash xarajatlari miqdori bilan aniqlanadi.

6-bob. Mahsulotlar uchun sof soliqlar

74. Mahsulotlar uchun soliqlarga: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va eksport-import operatsiyalariga soliqlar, shu jumladan, bojxona to'lovlari, davlatning eksport-import operatsiyalaridan olgan daromadlari hamda davlat budjetiga va budjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazib beriladigan shunga o'xshash to'lovlar kiradi.
75. Ishlab chiqarish va import bilan bog'liq bo'lgan soliqlar tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarilgan, sotilgan yoki import qilingan paytda, ya'ni soliq to'lash majburiyati yuzaga kelganda qayd etiladi va hisoblangan mablag'lar bo'yicha hisobga olinadi. Hisoblangan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmagan holatlarda, Soliq qo'mitasining haqiqatda kelib tushgan soliq tushumlari bo'yicha hisoboti va Bojxona qo'mitasining soliq to'lovlari, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.
76. Joriy narxlarda mahsulotlar uchun subsidiyalar davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlariga muvofiq hisobga olinadi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

77. YAIM mamlakat rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi va ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy o'sish

sur'atlari, mehnat unumdorligi tahlili va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tavsiflash uchun foydalaniladi.

78. Aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichi mamlakatda aholi soni o'zgarishiga nisbatan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlarga statistik baho beradi va aholi farovonligi darajasini baholashda foydalaniladi.

79. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" 2021- yil 11- avgustdagi O'RQ-707-son qonuni.
2. Система национальных счетов – 2008 // Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
3. European system of accounts – 2010 // Eurostat, 2013.
4. "O'zstandart" Agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2-tahrir)".
5. Рекомендации ЕЭК ООН по внедрению Системы национальных счетов – 2008 в странах Восточной Европы, Кавказа и Центральной Азии и Юго-Восточной Европы // Статистический отдел ЕЭК ООН, 2013 г.
6. Методологические рекомендации по исчислению показателей выпуска и использования услуг финансового посредничества, измеряемых косвенным образом, в соответствии с СНС – 2008 // Статкомитет СНГ, 2012 г.
7. Рекомендации по применению положений СНС – 2008: «Трактовка исчисления услуг страхования (кроме услуг страхования жизни)» // Статкомитет СНГ, 2014 г.
8. Текущая практика расчетов показателей ВВП в странах СНГ: Общая характеристика расчетов // Статкомитет СНГ, 2013 г.
9. Методологические рекомендации по трактовке выпуска услуг центральных банков в соответствии с СНС – 2008 // Статкомитет СНГ, 2012 г.
10. Трактовка научно-исследовательской деятельности в СНС – 2008 года // Статкомитет СНГ, 2009 г.
11. Обзор основных положений пересмотренной Системы национальных счетов 1993 года (СНС – 2008 года) и предложения по их поэтапному применению в статистике стран СНГ // Статкомитет СНГ, 2008 г.
12. Statistik ko'rsatkichlarga qisqa metodologik tushuntirishlar // O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. -T., 2020- y.

“Yalpi ichki mahsulotni
ishlab chiqarish usulida hisoblash
bo'yicha Uslubiy nizom”ga 1-ILOVA

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillik YAIM tarkibi sxemasi
(joriy narxlarda, mln.so'm)

Seksiya kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	Resurslar	Ishlatilish	
		ishlab chiqarish	oraliq iste'mol	yalpi qo'shilgan qiymat
		1	2	3 = 1 – 2
A	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi			
B	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
C	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat			
D	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
E	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish			
F	Qurilish			
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash			
H	Tashish va saqlash			
I	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			
J	Axborot va aloqa			
K	Moliyaviy va sug'urta faoliyati			
L	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar			
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat			
N	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish			
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot			
P	Ta'lim			
Q	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish			
R	San'at, ko'ngil ochish va dam olish			
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish			
	Bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (-)			
	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat – jami			
	Mahsulotlar uchun soliqlar			
	Mahsulotlar uchun subsidiyalar (-)			
	Bozor narxlarida yalpi ichki mahsulot			

“Yalpi ichki mahsulotni
ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha
Uslubiy nizom”ga 2-ILOVA

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha choraklik YAIM tarkibi sxemasi
(joriy narxlarda, mln.so'm)

Seksiya kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	Resurslar	Ishlatilish	
		ishlab chiqarish	Oraliq iste'mol	yalpi qo'shilgan qiymat
		1	2	3 = 1 – 2
A	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi			
B	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
C	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat			
D	Elektr , gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
E	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish			
F	Qurilish			
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash			
H	Tashish va saqlash			
I	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			
J	Axborot va aloqa			
L	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar			
K, M-S	Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari (bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlarini qo'shgan holda)			
	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat – jami			
	Mahsulotlar uchun soliqlar			
	Mahsulotlar uchun subsidiyalar (-)			
	Bozor narxlarida yalpi ichki mahsulot			